

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXROROVA SEVINCH ABROROVNA

**AUTIZM SINDROMLI BOLALARDA MULOQOT KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISHNING KORREKSION-PEDAGOGIK ASOSLARI**

13.00.03 - Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciyencyes**

Axrorova Sevinch Abrorovna

Autizm sindromli bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning korreksion-
pedagogik asoslari.....3

Ахророва Севинч Аброровна

Коррекционно-педагогические основы развития коммуникативных навыков у
детей с синдромом аутизма.....23

Akhrorova Sevinch Abrorovna

Correctional and pedagogical foundations of developing communication skills in
children with autism syndrome.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publish.....49

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXROROVA SEVINCH ABROROVNA

**AUTIZM SINDROMLI BOLALARDA MULOQOT KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISHNING KORREKSION-PEDAGOGIK ASOSLARI**

13.00.03 - Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7215 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) ilmiy-kengash) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Arslanova Madina Mansurovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Xoliqov Azamat Qaxramonovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Teshaboyeva Feruza Raximovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "31" "03" soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz.)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (456 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41.) e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "19" "03" da tarqatildi.
(2026-yil "19" "03" da "9" - raqamli reyestr bayonnomasi)




F.U. Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor


LD. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


D.O. Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni sifatli ta'lim va ijtimoiy ko'mak xizmatlari bilan qamrab olish, ularning mutaqil hayotga moslashuvini ta'minlashning korreksion-pedagogik strategiyalarini shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar asosida modernizatsiyalashga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa korreksion va inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriluvchi korreksion-pedagogik jarayonni innovatsion yondashuvlar asosida optimallashtirishni, individual ta'lim modellarida adaptivlashtirishni taqozo etadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Ta'lim hamma uchun" nomli ijtimoiy-siyosiy reja-dasturida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ham ta'limning qulay va sifatli bo'lishini ta'minlash vazifasi belgilab berilgan. Bu vazifaning ishtirokchi davlatlarda amalga oshirilishida diagnostika, korreksiya, rehabilitatsiya va adaptatsiya choralarini takomillashtirishning tibbiy-psixologik, tashkiliy-pedagogik modellariga ustuvorlik berilmoqda. Xususan, autizm sindromli bo'lgan bolalarni erta aniqlash, ularga erta kompleks ta'sir qilish va ularda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning korreksion-pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlari, oliy ta'lim muassasalarida autizm sindromli bo'lgan bolalar bilan ishlashning individual yo'naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim dasturlari va ijtimoiy-psixologik loyihalarini amalga oshirish orqali amaliyotga samarali integrativ metodikalarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Autizm sindromli bo'lgan bolalarni kompleks rivojlantirishning variativ dasturlarida neyropsixologik, korreksion-kompensatsion yo'nalganlik, sensor integratsiya tamoyillariga ustuvorlik berish dolzarb hisoblanadi. Bu esa mazkur toifa bolalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha o'quv konteksti ona tili qonuniyatlariga ko'ra tizimlashtirilgan lingvodidaktik mexanizmlarni taqozo etadi. Autizm sindromida yuzaga keluvchi birlamchi va ikkilamchi kamchiliklarni diagnostika qilish, muloqotga undovchi va ijtimoiylashishga motivatsiyalovchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning pedagogik-psixologik, integrativ-metodik jihatlarini takomillashtirishda nutqiy muhitni yaratish muhim omil sanaladi. Kommunikativlik ustida ishlash bo'yicha multisensorik ta'sir metodlarining innovatsion modellarini yaratish va joriy etish dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda sog'lom bolalar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ularda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning huquqiy me'yorlari takomillashtirilgan. "O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" vazifalari belgilab berilgan¹. Mazkur vazifa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autizm sindromli bo'lgan bolalar bilan ishlash tizimini aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanish darajalariga mos metodlar orqali boyitishni taqozo etadi.

Mazkur bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning korreksion-pedagogik aspektlarini tahlil qilish orqali amaliyotga innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim sanaladi. Bunda nutqiy muhitda adaptiv resurslardan va bolalarga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni

moslashtirilgan individual rivojlanish dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari, 2019 yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya”sini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 13-oktyabrda PQ-4860-son “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda 638-son “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”, 2024-yil 25-yanvardagi 46-son “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta‘lim olishlarini tashkil etish va ularni rehabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishning pedagogik, psixologik va metodik aspektlari Sh.M.Amirsaidova, M.M.Arslonova, M.Y.Ayupova, Z.N.Mamarajabova, L.R.Muminova, D.A.Nurkeldiyeva, P.M.Pulatova, V.S.Raxmanova, Sh.E.Toxtiyorova, M.F.Xakimova, M.P.Xamidova, F.U.Qodirova, R.Sh.Shomahmudova, D.B.Yakubjanovalar va boshqalarning tadqiqotlarida tahlil etilgan. N.A.Egamberdiyeva, L.V.Nazirova, D.A.Nurkeldiyeva, N.R.Jumaniyazova va boshqa olimlar tomonidan autizm sindromli bolalarga ta‘lim berish, ularni oilada tarbiyalash yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan E.R.Bayenskaya, V.M.Bashina, K.Gilbert, Y.S.Grebelskaya, D.N.Isayev, K.S.Lebedinskaya, M.M.Libling, I.I.Mamaychuk, S.A.Morozov, S.S.Morozova, T.N.Morozova, O.S.Nikolskaya, L.G.Nuriyeva, T.N.Piters, P.E.Suxareva, L.S.Vigotskiy, A.I.Zaxarov, Y.B.Zaxarova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida autizm sindromli bolalarning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari, ularni tibbiy-psixologik va pedagogik tashxislash usullari hamda ularda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan G.Asperger, E.Bleyler, B.Bettelxeym, Baron Cohen, M.M.Bristol, E.G.Carr, L.Eyzenbergom, N.T.Flusberg, R.R.Fevell, C.Gillberg, K.Gilbert, P.Hunt, Dj.M.Itar, R.Jordan, L.Kanner, L.Kappeg, T.Layton, V.M.Prizant, M.Rutter, E.Schopler, L.R.Watson va boshqalar autizm sindromli bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish tizimi komponentlari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ilmiy ishlar rejasining "Talabalarni tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni o'zlashtirishlariga qaratilgan ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha kompleks tadqiqotlar" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi autizm sindromli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning korreksion-pedagogik asoslarini tahlil etish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning korreksion-pedagogik xususiyatlarini aniqlash;

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish modelini takomillashtirish;

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish;

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida autizm sindromli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning korreksion-pedagogik asoslarini tahlil etish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarining ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan jami 101 nafar 6-7 yoshli tarbiyalanuvchilari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida manbalar va tajribalarni o'rganish, anketa, suhbat, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning korreksion-pedagogik xususiyatlari bolalarda nigohli kontakt muddatini uzaytiruvchi o'zbek tili qonuniyatlariga moslashtirilgan korreksion-adaptiv resurslarni logoped va ota-onalarning metodik hamkorligida adaptivlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish modeli bolalarda mayda va umumiy motorikani rivojlantiruvchi multisensorik xaritani neyropsixologik mobilizatsiya muhitida personal moslashuvchanlikda korreksiya metodlari elementlariga bosqichma-bosqich singdirish asosida takomillashtirilgan;

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi so'z va predmet o'rtasidagi assotsiatsiyaga asoslangan alternativ muloqot

mashqlarini korreksion ta'sirning o'zbek tilida leksik baza algoritmlarida simulyativ monitoringda transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik ta'minotini buyruqdan nutqiy ifodagacha leksik-grammatik o'yinlarni relaks mashqlar bilan konstruktiv integratsiyasini korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat trayektoriyasi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning korreksion-pedagogik xususiyatlarini inobatga olgan holda nutqiy rivojlanish xaritasining multisensorik modifikatsiyasi ishlab chiqildi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning korreksion-pedagogik asoslariga tayanilgan hamda kommunikatsiyaga yo'naltirilgan metodik tizimini pedagogik jamoaga o'rgatuvchi "Autizm sindromli bolalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda oila va ta'lim muassasasi hamkorligi" mavzusida integrativ seminar dasturi ishlab chiqildi;

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalarni o'zida mujassamlagan "Logopedik texnologiya" nomli o'quv qo'llanma nashr qilindi va amaliyotga joriy etildi;

innovatsion yondashuvlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autizm sindromli bolalar bilan olib boriluvchi korreksion mashg'ulotlarni diagnostik va korreksiya ishlari integratsiyasida olib borish tavsiyalari aks etgan "Neyropedagogika. Neyrologopediya" nomli o'quv qo'llanma nashr etildi va amaliyotga joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plami, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, muammoning ijtimoiy-pedagogik, tashkiliy-metodik tavsifini oydinlashtiruvchi o'quv qo'llanma nashr etilganligi, to'plangan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi, tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy, metodik g'oyalarning maxsus pedagogika va psixologiya, neyrologopediya amaliyotining mazmuni va funksiyalarini ifodalashga xizmat qilishi bilan belgilanadi hamda tajriba-sinov ishlarining haqqoniyligini, olingan natijalarning asosligini tasdiqlovchi ma'lumotlarning vakolatli respublika davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati autizm sindromli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari neyrologopedik, neyropedagogik yondashuvlar, diagnostika va korreksiya ishlarining metodik integratsiyasida ochib berilganligi, impressiv va ekspressiv nutqni rivojlantirishga qaratilgan mayda va umumiy motorikani rivojlantiruvchi multisensorik xaritaning neyropsixologik mobilizatsiya muhitida korreksiya metodlari elementlariga mos ishlab chiqilgani, so'z va predmet o'rtasidagi assotsiatsiyaga asoslangan alternativ muloqot mashqlarining korreksion ta'sirning leksik baza algoritmlarida simulyativ monitoringda transformatsiyalanganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati autizm sindromli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning korreksion-pedagogik ish tizimi multisensorik, neyropsixologik, neyropedagogik mexanizmlar asosida takomillashtirilganligi hamda tadqiqot natijasida taklif etilgan tavsiyalar va metodik ko'rsatmalardan maxsus pedagogika yo'nalishida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi logopedlarning malaka oshirish kurslarida, shu yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilarning tadqiqotlari bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda, inklyuziv ta'limga autizm sindromli bolalarni nutqiy jihatdan tayyorlash jarayonini didaktik takomillashtirishda metodik manbaa sifatida hamda mazkur bolalarning ota-onalari uchun ijtimoiy-pedagogik konsultativ manbaa sifatida foydalanilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Autizm sindromli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning korreksion-pedagogik asoslarini tahlil etish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

autizm sindromli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning korreksion-pedagogik asoslarini, korreksion-adaptiv resurslarini pedagog va ota-onalarning metodik hamkorligini kuchaytirishga oid takliflari "Logopedik texnologiya" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22 dekabrda 537-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 537297-sonli guvohnoma). Natijada, autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini didaktik ta'minlashga xizmat qilgan;

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish modeli bolalarda mayda va umumiy motorikani rivojlantiruvchi multisensorik xaritaning neyropsixologik mobilizatsiya muhitida personal moslashuvchanlikda korreksiya metodlari elementlariga bosqichma-bosqich singdirishga oid tavsiyalari "Neyropedagogika. Neyrologopediya" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrda 429-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 429738-sonli guvohnoma). Natijada, autizm sindromli bolalar kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan korreksion-pedagogik jarayonni modellashtirish bo'yicha tavsiyalarni targ'ib etishga erishilgan;

autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi so'z va predmet o'rtasidagi assotsiatsiyaga asoslangan alternativ muloqot mashqlarini korreksion ta'sirning leksik baza algoritmlarida simulyativ monitoringda transformatsiyalash usullari va adaptiv resurslari Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining maktabgacha ta'lim amaliyotiga joriy etilgan (Respublika tashxis markazining 2025-yil 18-noyabrda 01/10-01-361-sonli dalolatnomasi). Natijada autizm sindromli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga oid metodik ta'minot takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha

jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnalda 2 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Autizm sindromli bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida autizm sindromli bolalar rivojlanishining tibbiy-pedagogik-psixologik xususiyatlari, bolalarda nigohli kontakt muddatini uzaytiruvchi samarali omillar va mazkur bolalar rivojlanishida muloqotning o‘rni, rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kommunikativ funksiyalar shakllanishi va uni rivojlantirish tamoyillari, muloqotni egallashdagi qiyinchiliklar va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishning korreksion-adaptiv resurslari yoritilgan.

Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar orasida autizm sindromli bolalar ham mavjud bo‘lib, ular bugungi kunda aholining 3.2 foizini tashkil etadi. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha tug‘ilayotgan har 100 nafar bolaning bittasida autizm aniqlanadi. So‘nggi yillarda autizmga chalingan bolalar soni har yili 13 foizga oshmoqda. Mamlakatimizda bunday bolalar sonining ortib borishi tibbiyot xodimlari, psixiatrlar, psixologlar, pedagoglar, logopedlar va ota-onalarning bu muammoga chuqur yondashuvlarini va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, shuningdek, ularni korreksiyalashning eng optimal variantlarini ishlab chiqarishga undamoqda.

Autizm ruhiy kasalliklarning belgilaridan biri bo‘lib, bunda bola tevarak-atrofga nisbatan befarq, beparvo bo‘ladi, natijada atrofdagilar bilan kommunikatsiyada bo‘lmaydi, muloqot qilmaydi. Autizm sindromli bolalar o‘z-o‘zi bilan bo‘lib, hayajonlanib, kuyinib, tashvishlanib o‘z ichki dunyosida yashaydi. Ba‘zi bolalarda emotsional qiyinchiliklar mavjud bo‘ladi. Ularning xulq-atvori g‘ayritabiiy bo‘ladi, buni bolalarning noo‘rin yig‘lashlaridan yoki kulishlaridan bilish mumkin. Ular haddan tashqari harakatchan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida biror narsaga diqqatini bir zumgina qaratib, yana boshqa narsa bilan chalg‘ib ketishlari mumkin.

Autizm sindromli bolalar boshqalarning ko‘ziga qaramaydilar, quchoqlaganda bezovta bo‘lishadi, kishilarning hissiyotlarini tushunishda qiynalishadi. Ular giperfaol yoki aksincha, o‘ta passivdirlar. Natijada bunday bolalar axborot almashishga

ishtiyoq bildirmaydi. Bu kamchiliklar bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonini sekinlashtiradi. Natijada mazkur toifa bolalarning qaysi ta'lim turida o'qitish maqsadga muvofiqligini aniqlash bo'yicha ota-onalar va pedagoglarda savol yuzaga keladi. Agar bu bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha korreksion-pedagogik ishlar maxsus metodik tizim asosida olib borilsa, keltirilgan muammolarga yechim topish imkoniyati kengayadi. Shuning uchun biz tadqiqotimizni aynan autizm sindromli bolalarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning korreksion-pedagogik jihatlarini tadqiq etishga qaratganmiz.

“Autizm” terminini Eygen Bleyler 1912-yilda fanga kiritgan va mazkur sindromga quyidagicha ta'rif bergan: “Autizm - insonni emotsional boshqariladigan ehtiyojlarning real voqelikka bog'liq bo'lmagan fikrlashning o'ziga xos ko'rinishidir”. Autizm sindromi nomi ilk bora 1943-yilda L.Kanner tomonidan tavsiflangan: “Bolalar autizmi – muloqot (nutq, motorika)ning buzilishi bilan kechadigan alohida holat bo'lib, u “shizofrenik sindrom” holatlar qatoriga kiradi”. L.Kannerdan tashqari mazkur sindrom G.Asperger tomonidan 1944-yilda hamda S.Mnuxin tomonidan 1947 yilda tavsiflab berilgan.

Autizm sindromidagi o'ziga xos belgilar G.Asperger, E.Bleyler, B.Bettelxeym, C.Gillberg, K.Gilbert, Dj.M.Itar, L.Kanner, S.S.Mnuxin, M.M.Liyebing, R.Jordan, L.Kappeg, E.Schopler va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Dj.M.Itar insonlardagi autizm bilan bog'lik muammoga o'zgacha yondashib, bu holatni «aqliy mutizm» deb ta'riflaydi. Shu bilan u autizmdagi eng muhim belgilardan biri - aqliy buzilish mavjud bo'lmagan holatda insonda nutqiy rivojlanmaganlik yoki nutqiy rivojlanishdan orqada qolish kabilarni ajratib ko'rsatadi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida tadqiqot doirasida mualliflik ta'rifi shakllantirildi: “Autizm sindromli bolalar - bu neyropsixologik rivojlanishning erta bosqichlarida shakllanadigan, ijtimoiy muloqot, emotsional idrok, nutqiy faoliyat va xulq-atvor sohalarida o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan bolalar bo'lib, ularning rivojlanish jarayoni tibbiy, psixologik va pedagogik yondashuvlarning uzviy integratsiyasini talab etadi”. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan ICD-10 (Kasalliklarning xalqaro tasnifi – 10-nashr) tibbiyot va psixologiya sohasida kasalliklarni tashxislash va kodlash uchun qo'llaniladigan xalqaro standart hisoblanadi. Ushbu tasnif autizm sindromi buzilishlarini ham aniq diagnostik mezonlar asosida tavsiflaydi (1-jadval):

F84.0 – Kanner sindromi (erta bolalikdagi autizm), F84.1 – Atipik autizm, F84.2 – Retta sindromi, F84.3 – Boshqa dezintegrativ buzilishlar (bolalikdagi dezintegrativ buzilish, Heller sindromi), F84.4 – aqliy zaiflik bilan birga (giperkinezik autizmga o'xshash)kelgan buzilishlar, F84.5 – Asperger sindromi, F84.8 – Boshqa umumiy rivojlanish buzilishlari, F84.9 – Aniqlanmagan umumiy rivojlanish buzilishi.

Umumiy qilib aytganda, F84 guruhi quyidagilarni bildiradi: ijtimoiy o'zaro munosabatlarda muammolar; muloqot va nutq rivojlanishida buzilishlar; cheklangan, takrorlanuvchi stereotiplar va xatti-harakatlar. ICD-11 kasalliklarni tasniflashda autizm sindromiga autizm spektrining buzilishi sifatida tashxis qo'yilishi qiyosiy tahlil etildi.

Xorijiy maxsus pedagogika va psixologiyada autizmli bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun uchta asosiy yondashuv ishlab chiqilgan: 1)psixoanalitik; 2) xulq-atvor; 3) psixolingvistik.

Kanner va Asperger sindromlarining differensiativasi

Taqqoslash mezonlari	Kanner sindromi	Asperger sindromi
Sensor-emotsional rivojlanish	Sensor-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishda bolalar harakat yoki predmetga nisbatan "fiksatsiya" yoki "obsessiya"ni namoyon qilishi va atipik hissiy javoblarga ega bo'lishi mumkin.	Bolalar odatda tasvir yoki fikrga "obsessiya" qilishadi, shuningdek, g'alati tarzda talqin qilinishi va yangi predmetga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan atipik hissiy reaksiyalarga ega.
Autizm	Bolalarda u hayot davomida saqlanib qoladi va ularning aqliy rivojlanishiga ta'sir qiladi.	Bolalarda u yengil yoki o'rtacha bo'lishi mumkin va ijtimoiy moslashuvchanlikni saqlab qolgan holda yillar davomida kamroq aniqlanadi.
Nutq	Bolalarda u kech rivojlanadi, lekin kommunikativ funksiyani bajarmaydi va yomon rivojlangan bo'lishi mumkin.	Nutq erta rivojlanadi, bu nutq grammatik va leksik jihatdan to'g'ri, ammo his-tuyg'ularni yetkazishda cheklovlar bo'lishi mumkin.
Motorika	Bolalar normal motorli ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkin, ammo qo'l va ko'zni muvofiqlashtirish zaif, vosita stereotiplari va mushak distoniyasi mavjud.	Bolalar motorli ko'nikmalarda qo'pol buzilishlar mavjud.
Intellekt	Bolalar normal intellektga ega bo'lishi mumkin, ammo aqliy rivojlanishda kechikishlar ham bo'lishi mumkin.	Bolalar odatda yuqori yoki o'rtacha intellektga ega, ammo ijtimoiy intellekt zaiflashishi mumkin.
O'yin	Bolalarda o'yin faoliyati, rolli o'yinlar va nutq bilan birga o'yin faoliyati yetishmaydi. Ular stereotipik predmet-o'yin faoliyatiga yopishib olishadi.	Bolalar syujetli-rolli o'yinlar, monolog nutqlari va o'yin harakatlariga ega, ammo hissiy desentratsiya bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda olimlar autizm spektri buzilishiga chalingan shaxslarni asosan 4ta guruhga bo'lib o'rganishmoqda:

1. Ilk yoshdagi bolalar autizmi (2 yoshgacha bo'lgan bolalar). Bu yoshdagi bolalar autizmida bolalar rivojlanishini 4 xil turga bo'lib o'rganiladi: 1) atrofdagi voqealarga butunlay bee'tibor. Uni kuldirish, e'tiborini qaratish juda qiyin. Ular hattoki qorni ochganida ham munosabat bildirmaydi. Taktil muloqotga kirishishni istamaydi. Tadqiqotda bu guruh bolalari shartli ravishda **“Indifferent guruhi”** (befarq) deb nomlandi; 2) muloqotga odamlarni tanlab kirishishadi. Asosan ota-onasi bilan muloqotga kirishadi, taom va kiyim tanlashda ham e'tiborli bo'ladi. Ularda doimiy hayot tarzidan chetga chiqilganda qo'rquv, agressiya kuzatiladi. Tadqiqotda bu toifa bolalar guruhini shartli ravishda **“Formallashtirilgan muloqot guruhi”** deb nomlandi; 3) stereotipik qiziqishlarga berilgan bo'ladi. Ular doim bir xil, qaytariluvchi harakatlarni bajarishadi. Ular yillar davomida faqatgina bir mavzuda suhbatlashishlari, bir xil syujetli rasm chizishlari mumkin. Tadqiqotda bu guruh bolalari shartli ravishda **“Interest guruhi”** (qiziqish) deb nomlandi; 4)

muloqotga kirishadi, lekin bu jarayon juda qiyin amalga oshadi. Bu autizmning yengil turi hisoblanadi. Tadqiqotda bu guruh bolalari shartli ravishda **“Impulsiv guruhi”** (tashqi ta’sirlarga beriluvchan) deb nomlandi.

2. Bolalar autizmi (2-14 yoshdagi bolalar). Bu bolalarda ham ilk yoshdagi bolalar autizmida uchraydigan belgilar kuzatiladi. Ular bir so‘z yoki musiqani doimiy ravishda takrorlab yurishadi, ko‘nikma va malakalarni egallashga juda qiynalishadi.

3. O‘smirlar autizmi (14-18 yoshdagi bolalar). Bu yoshdagi bolalar eng oddiy muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi. Lekin ko‘proq yolg‘iz qolishni xohlashadi. Ko‘p hollarda ular ruhiy tushkunlik holatida bo‘ladilar.

4. Kattalar autizmi (18 yoshdan keyin). Kattalar autizmida shaxsda ruhiyatning jiddiy buzilishlari kuzatiladi. Ular butunlay o‘z olamida yuradi, tashqi olamdagi voqea va hodisalarga bee’tibor bo‘lishadi.

Mamlakatimiz korreksion ta’lim amaliyotida mazkur bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg‘ulotlar uchun yaxlit dastur ishlab chiqilmagan. Muammoni asoslovchi tajriba-sinov ishlari natijasida autizm sindromli bolalar nutqida quyidagi kamchiliklar uchrashi aniqlandi: 1) lug‘at zahirasining kamligi; 2) mutizm; 3) logofobiya. Bundan tashqari mazkur bolalarning 6-7 yoshida xulq-atvorning quyidagi og‘ishlari yaqqol kuzatiladi: 1) qo‘rquv; 2) agressiya; 3) antagonistik munosabat. Keltirilgan kamchiliklar sababli autizm sindromli bolalarda ko‘pgina hollarda kommunikatsiya qilishning buzilishi „so‘z va jumalarning tasodifan aytilishi, nutqdan kommunikatsiya qilish uchun maqsadga yo‘naltirilgan holda foydalanishning yo‘qligi“ ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Autizm sindromli bolalar qanchalik erta ta’limga jalb etilsa, ularda nutqiy, intellektual, xulq-atvor va emotsional muammolarning bartaraf etilishiga erishiladi.

J.L.Adriyen autizm sindromli bolalarda xatti-harakatlarning o‘ziga xos shakllarini kuzatdi va ularni ijtimoiy o‘zaro ta’sir, muloqotning yetishmasligi sifatida tavsifladi; gipoaktivlik, gipotenziya, hissiy reaksiyalarning yetarli darajada ekspressivligi va diqqatni jamlash mavjudligini qayd etdi.

G.A.Mishina, V.Stern, J.Piaget, A.R.Luria, A.V.Zaporojets va S.L.Rubinshteynlarning tadqiqotlariga ko‘ra, bolaning rivojlanishidagi buzilishlar va orqada qolishlarning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri uning nutqidir. L.Kanner muloqotdagi qiyinchiliklar autizm sindromini tashxislashning asosiy mezon sifatida ko‘rib chiqadi. R.Jordan esa autizmida rivojlanishning dastlabki bosqichlaridan boshlab muloqotning barcha shakllari buzilishini ko‘rsatib o‘tadi.

M.M.Kolsova bolalarning impressiv va ekspressiv nutqiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilib, nutqning motor jihatdan rivojlanishiga umumiy motor harakatchanlik, sensor tomoniga kattalar muloqotining ta’siri kattaligini aniqladi.

Autizm sindromi bo‘lgan bolalar bilan ishlashda eng murakkab yo‘nalishlardan biri ularning muloqot faoliyatini rivojlantirishdir. Bu bolalarda sezgi tizimlarining integratsiyasi, ijtimoiy o‘zaro ta’sir, emotsional aloqaga kirishish va verbal nutq shakllanishida sezilarli cheklovlar mavjud bo‘ladi. Shu bois, muloqotni rivojlantirish uchun an’anaviy metodlardan tashqari, sensor integratsiya yondashuviga asoslangan kompleks metodik tizim joriy etilishi dolzarbdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Autizm sindromli bolalarda muloqot xususiyatlarini o‘rganishning integrativ metodikasi”** deb nomlanib, ushbu bobda autizm sindromi bo‘lgan bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning integrativ metodikasi hamda autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish modeli bolalarda mayda va umumiy motorikani rivojlantiruvchi multisensorik xaritani neyropsixologik mobilizatsiya muhitida personal moslashuvchanlikda korreksiya metodlari elementlariga bosqichma-bosqich singdirishni tashkil etuvchi asosiy yo‘nalishlar, pedagogik shart-sharoitlar va amaliy mexanizmlar ilmiy asosda yoritildi. Tadqiqot davomida autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi so‘z va predmet o‘rtasidagi assotsiatsiyaga asoslangan alternativ muloqot mashqlarini korreksion ta‘sirning o‘zbek tilida leksik baza algoritmlarida simulyativ monitoringda transformatsiyalash asosida takomillashtirildi hamda amaliyotga **“Autizm sindromli bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish”** modeli joriy etildi. Mazkur modelni shakllantirishda N.A.Egamberdiyeva, L.V.Nazirova, N.R.Jumaniyazovalarning modellariga tayanildi.

Autizm sindromi bo‘lgan bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni ularning psixologik-pedagogik ehtiyojlari, kognitiv imkoniyatlari va emotsional holatini chuqur tahlil etish orqali aniqlab olindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bunday bolalarda muloqot jarayoni nutqiy faoliyat bilan bir qatorda, ijtimoiy idrok, hissiy reaksiya va o‘zaro ta‘sirga tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, ishlab chiqilgan metodika bolalarning mavjud imkoniyatlarini inobatga olgan holda muloqotni shakllantirishning bosqichma-bosqich modelini taklif etdik. Ishlab chiqilgan autizm sindromi bo‘lgan bolalarning muloqotini shakllantirish modeli o‘zida maqsad, mazmun, shakl, vosita va natija kabi komponentlarni qamrab oladi.

Model autizm sindromli bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha metodik tizimning bloklaridan tashkil topdi. Jumladan, nazariy ma‘lumotlarni o‘rganish va amaliyotdagi tajribalarni tahlil qilish natijasida autizm sindromli bolalar muloqotini shakllantirishga ta‘sir etuvchi korreksion-pedagogik tamoyillar modelda aks etdi. Ular: umumpedagogik (izchillik, faollik, tushunarlik); neyropsixologik (sensor tizimlar integratsiyasi); individual va moslashtirilgan yondashuv; hamkorlik va refleksiya. Bundan tashqari subyektlar faoliyati integratsiyasiga asoslangan omillar sifatida quyidagilar keltirildi: ota-onalarning pedagogik savodxonligi; muloqotni rag‘batlantiruvchi muhit; bolaning individual sezgi va emotsional xususiyatlariga mos adaptiv resurslar. Mazkur tamoyillar va omillar ustuvorligida autizm sindromli bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning korreksion-pedagogik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model ijtimoiy ehtiyoj, pedagogik maqsad, psixologik komponentlar va amaliy bosqichlar birligi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u bolaning barcha sezgi tizimlarini o‘zaro uyg‘unlikda ishlatish orqali tabiiy muloqotga undaydi.

Autizm sindromi bo‘lgan bolalarda muloqotni shakllantirish texnologiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: 1)diagnostika bosqichida autizm sindromli bolalarning sensor va muloqot ko‘nikmalari darajasi aniqlandi. Tadqiqot doirasida autizm sindromli bolalarda muloqot xususiyatlarini o‘rganishning integrativ

metodikasi ishlab chiqildi. Bu jarayonda “Lug‘at boyligi”, “Savolni tushunish”, “Savol berish” va “bog‘langan nutq” mezonlari bo‘yicha baholash o‘tkazildi; 2)korreksiya bosqichida autizm sindromli bolalar uchun individual mashg‘ulot dasturi ishlab chiqildi. Bu bosqichda “Eshit, takrorla va top”, “Manzilli mo‘ljal”, “7 qatorda 7 nom”, “Uchinchi zinada nima?”, “Hayvonot bog‘i” kabi multisensorik o‘yinlardan foydalanildi; 3)kommunikatsiya bosqichida autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko‘nikmalari bolalarda nigohli kontakt muddatini uzaytiruvchi o‘zbek tili qonuniyatlariga moslashtirilgan korreksion-adaptiv resurslar orqali rivojlantirildi.

Autizm sindromli bolalarning rivojlanishida psixologik-pedagogik xususiyatlar, xususan, ularning diqqat, sezgi, idrok, nutq, tafakkur va emotsional sohalarining o‘ziga xos kechishi alohida e‘tibor talab etadi. Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda tuzilgan o‘quv-tarbiyaviy ishlar bolaning muloqotga kirishish ehtiyojini shakllantirish, ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtirish va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Shu bois, pedagogik jarayonda strukturaviy, demonstrativ va multisensorli metodlardan foydalanish muhim hisoblandi.

Autizm sindromli bolalarda muloqot faqat nutqiy faoliyat emas, balki bolaning butun sezgi tizimi orqali amalga oshadigan kompleks jarayondir. Shuning uchun mazkur jarayon quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: Idrok va sezgi integratsiyasi – vizual, auditiv, taktil, vestibulyar va proprioseptiv tizimlarning muvofiq ishlashini ta‘minlash. Emotsional-motivasion rivojlanish – bolaning muloqotga bo‘lgan ijobiy kayfiyatini shakllantirish. Ijtimoiy moslashuv – muloqot jarayonini tabiiy muhitda (oila, bog‘cha) tashkil etish. Nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish – so‘z boyligi, savol berish, tushunish va javob qaytarish qobiliyatlarini rivojlantirish. Tadqiqot markazida **sensor integratsiya orqali muloqotga undash** g‘oyasi yotadi, ya‘ni bolaning sezgi a‘zolari orqali olgan tajribasi muloqot ehtiyojini paydo qiladi. Autizm sindromi bo‘lgan bolalarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni ularning sezgi tizimlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish, shaxsiy emotsional holatini barqarorlashtirish va ijtimoiy muloqotga tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Sensor integratsiya esa bu jarayonni ilmiy asosda tizimlashtiruvchi va amaliy jihatdan samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Taklif etilgan model tibbiy, psixologik va pedagogik yondashuvlarning integratsiyasi asosida tuzilgan bo‘lib, bolalarda mayda va umumiy motorikani rivojlantiruvchi multisensorik xaritani neyropsixologik mobilizatsiya muhitida personal moslashuvchanlikda korreksiya metodlari elementlariga bosqichma-bosqich singdirish asosida takomillashtirishga qaratilgan.

Tadqiqotimizda korreksion-pedagogik ta‘lim orqali sensor integratsiya yondashuvining asosiy komponentlari belgilab olindi: 1)ko‘rgazmali va auditiv integratsiya (ko‘rish va eshitish signallarini uyg‘un qayta ishlash); 2)taktil va proprioseptiv integratsiya (tana holati va harakatni his etish); 3)vestibulyar integratsiya (muvozanat va fazoviy idrokni rivojlantirish); 4)emotsional-kommunikativ komponent (o‘zaro ishonch va javobli muloqotni shakllantirish).

Autizm sindromli bolalarni muloqotga o‘rgatishda “Hayvonot bog‘i”, “Eshit, takrorla va top”, “Manzilli mo‘ljal”, “7 qatorda 7 nom”, “Uchinchi zinada nima?” kabi multisensor o‘yinlar va “Ijtimoiy impulsiv lokatsiya” texnologiyalarning o‘rni

alohida tahlil qilinib, autizm sindromli bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi so'z va predmet o'rtasidagi assotsiatsiyaga asoslangan alternativ muloqot mashqlarini korreksion ta'sirning o'zbek tilida leksik baza algoritmlarida simulyativ monitoringda transformatsiyalash samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot jarayonida autizm sindromli bolalarda muloqotga kirishuvchanlikni oshirish, birgalikda faoliyatni tashkil etish hamda nutqiy faollikni rag'batlantirish maqsadida multisensor yondashuv asosida "Hayvonot bog'i" nomli multisensor o'yin texnologiyasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur o'yin autizm sindromli bolalar uchun sezgi integratsiyasi, ijtimoiy o'zaro ta'sir, nutqni rag'batlantirish va emotsional javob qaytarishni kuchaytirishga xizmat qiladigan ko'pkanalli (ko'rish-eshitish-taktil) stimullar asosida loyihalashtirildi. Mazkur multisensorik o'yin bolaga tanish bo'lgan ko'rgazmali obrazlar - hayvonlar, ularning yashash muhiti va ovozlari asosida quriladi. O'yin jarayoni vizual (hayvon rasmlari, rangli kartochkalar, videolavhalar), audial (hayvonlarning ovozlari, logopedning nutqiy ko'rsatmalari) va taktil (hayvonlarning yungini eslatuvchi matolar, fakturali kartochkalar, yumshoq o'yinchoqlar) komponentlardan tashkil topdi. Mazkur komponentlarning bir vaqtning o'zida qo'llanishi bolada sensor qabulni uyg'unlashtiradi va muloqotga kirishuvchanlik darajasini oshiradi. Ushbu multisensorik o'yin tajriba-sinov jarayonida quyidagi natijalarni ko'rsatdi: bolalarda ko'z bilan kontakt qilish chastotasi oshdi; tanlov qilish, imo-ishora orqali fikr bildirish kabi ijtimoiy tashabbus kuchaydi; hayvon nomlari, ularning harakati va ovozlari orqali leksik zaxira kengaydi; emotsional javob qaytarish va xursandchilikni ifodalash holatlari kuzatildi; birgalikda o'ynash, navbat kutish kabi ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish darajasi yaxshilandi. Olingan natijalar multisensor ta'sirga asoslangan interaktiv o'yinlar autizm sindromli bolalarda muloqotga kirishuvchanlikni oshirishda samarali ekanini tasdiqlaydi.

